

INNOVATSION O'QITISH: YANGI STRATEGIYALAR, USULLAR VA VOSITALAR

Sanoyeva Muhtabar Nabiyeвна

*Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. *Maqolada STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda zamonaviy innovatsion ta'lim muhitini yaratish va shu asnoda o'qitish samaradorligini oshirish masalari haqidagi mulohazalar bayon etilgan. Zamonaviy o'qitish strategiyalari axborotni qisqa, aniq va samarali shaklda yetkazish yondashuviga asoslanganligi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *strategiya, innovatsion o'qitish, zamonaviy yondashuv, sifat, samaradorlik, o'quv moduli, nanota'lim, psixologik iqlim, "Hook" va "Fidbek" texnologiyasi.*

Innovatsion o'qitish – ta'limda yangi o'qitish strategiyalari, usullari va vositalarini auditoriyaga integratsiya qilish bo'lib, faol yondashuvni talab etadi. Bunda texnologiyalar asosiy vosita sanaladi va talabalarning ehtiyojlari – qiziqishlari rivojlantiriladi. So'nggi yillarda jahon andozalariga mos ta'lim muhitini yaratish va shu asnoda o'qitish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etganligi bois maqolada mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan innovatsion o'qitish usul va vositalari haqida so'zlashni joiz deb topdik.

Bilamizki, STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"[1, 4] bandlarida qayd etilgan bo'lib, rivojlangan texnika va sun'iy intellekt asrida ma'lumotni tez va oson o'zlashtirish imkonini nazarda tutadi. Shu ma'noda bugungi kun nanota'limi zamonaviy texnologiyalar yordamida axborotni qisqa, aniq va samarali shaklda yetkazish yondashuvidir. Bu uslub talabalarning e'tiborini ushlab turish, ma'lumotni tezlik bilan qabul qilish va xotirada mustahkam saqlash uchun mo'ljallangan. Nanota'lim oddiy o'quv modullariga nisbatan ixchamroq va vizual jihatdan jozibaliroq bo'lib, qisqa muddatda katta foyda keltiradi, bugungi avlodning o'rganish ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuv hisoblanadi.

Qaynoq internet xabarlari qisqa bo'lganligi sababli ham nanota'limning asosiy tamoyili – axborotni qisqa, lekin mazmunli shaklda yetkazishdir. Bu yondashuv zamon zayliga ko'ra e'tibor muddati qisqa bo'lgan bilim oluvchilar uchun ayni muddao bo'lib

xizmat qiladi. Bu texnologiyaga asoslangan darslarning har bir o'quv bo'lagi atigi 1-3 daqiqani egallab, aniq bir maqsadga xizmat qiladi. Talabalar o'ziga kerakli ma'lumotni tezda olish, mantiqan tushunish va foydali maqsad yoki amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi. E'tiborlisi, mashg'ulotning barcha qismlarida ulardan o'rinli foydalanish mumkin.

Ma'ruza darslarining kirish qismida psixologik iqlim yaratish dolzarb masala sanaladi, bu o'quv bo'lagi talabalar fikrini jamlash, kayfiyatni yaxshilash, mashg'ulotning qolgan qismida natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Masalan:

1. Hozir uxlasang, orzuingga tushingda erishasan. Darsingni tugatsang, orzuingni hayotga tatbiq qilasan.
2. Juda kech bo'ldi, deb o'ylaganingda, aslida endi boshlangan bo'ladi.
3. Ta'limning mashaqqati vaqtinchalik xolos. Jaholat mashaqqati abadiydir.
4. Ta'lim bu vaqt emas, harakatdir.
5. Hayot faqat ta'lim olish degani emas, ammo hayotning bu qismini bosib o'tolmasang, nimaga qodir ekanligingni aniqlay olmaysan?
6. Doimiy rivojlanib borish imkoniyatidan rohatlan!
7. Hamma ishni oldindan qilib borishni, tirishishni o'rgan, mehnating samarasini ko'r.
8. Muvaffaqiyatga hamma emas, o'z ustida ishlagan va qat'iyatlilar erishadi.
9. Hozir to'kkan tering ertaga quvonch ko'z yoshlariga aylanadi.
10. Bugun yurmasang, ertaga yugurishga majbur bo'lasan.
11. Oylik ish haqing olgan bilimingga to'g'ri proporsionaldir.
12. Hozir dushmanlaring tashnalik bilan kitob varaqlamoqda!

“Hook” - darsning kirish qismida talabalarning qiziqishlarini oshirish, mavzuga jalb qilish uchun qo'llanadigan qisqa, ta'sirchan texnologiya sanaladi va yangi mavzu uchun zamin yaratadi. “Hook” so'zining bir nechta ma'nosi bo'lib, asosan, e'tiborni tortuvchi so'z yoki ibora ma'nosida qo'llaniladi. Foydalanish maqsadiga ko'ra uni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Vizual material asosidagi Hookda ekranga e'tiborni jalb qilish bilan birga mushohadaga chorlovchi surat chiqarish va savol berish: “Sizningcha, bir tomchi suvning qadri qancha bo'lishi mumkin?” Talabalar 1 daqiqa ichida fikrlarini jamlaydi va keyin auditoriya bilan baham ko'radi.

2. Audio Hookda mashhur shoirning o'z ovozi she'r o'qigan audiosini eshittirish (masalan, Muhammad Yusufning she'ri). Bunda talabalar eshitgan she'r mavzusini aniqlaydi va asosiy hissiyotni tavsiflaydi.

3. Qiziqarli faktga asoslangan Hook. “Bilarmidingiz? Cho'lpon yoshligida teatr uchun yozilgan asarlarini sahnalashtirishda qatnashgan. Keltirilgan fakt asosida, “Agar Cho'lpon faqat aktyor bo'lganida, adabiyotimizda nimalar o'zgarar edi?” mavzusida uch jumladan iborat fantaziya yozdirish mumkin.

4. Sitata asosidagi Hook. A3 formatda yozilgan Alisher Navoiyning “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin” bayti talabalarga taqdim etiladi. Bilim oluvchilar juftliklarda bu baytning zamonaviy hayotga qanday mos kelishini muhokama qilishadi.

5. Jumboq yoki topishmoq shaklidagi Hook. “Men so‘zman. Mening har birim insonni o‘ylashga, his qilishga undaydi. Men kimman?” (Javob: She‘r) Shundan so‘ng talabalar o‘zlari adabiyot yoki tilga oid yangi jumboq tuzadi.

6. Mini-sahna ko‘rinishidagi Hookni har bir asardan berilgan parchani o‘rganish davomida qo‘llash mumkin. Bunday vaziyatda 1–2 daqiqalik qisqa dialog ijro qilinadi. Sahna ko‘rinishidan keyin ishtirokchilar voqeaning davomini o‘zlari aytib beradi.

7. Interfaol savol-javob Hooki integratsiya jarayonini yuzaga chiqaradi. “Sizningcha, adabiyotni qaysi fanlar bilan bog‘lash mumkin?” savoli bilan boshlash natijasida qiziqarli savol-javob muhiti yuzaga chiqadi.

8. Obyekt asosidagi Hookni qo‘llash auditoriyaning kayfiyatini oshiradi, chunki ko‘rsatilayotgan obyekt noodatiy (eski grammofon) bo‘lsa, qiziquvchan ifoda, g‘ayritabiyy hissiyot auditoriyani qamrab oladi.

“Hook”ning ko‘rinishlarini shu zaylda yaratish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish uchun, aholi ta‘limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati [5, 8] natijasida qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslangan bo‘lib, nazariy ma‘lumotlarni tahlillar va pedagogik tajriba asosida amalga oshirish ta‘lim samaradorligi darajasini oshiradi. Dolzarb taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etish har bir pedagog oldida turgan asosiy vazifadir.

O‘quvchilarning yutuqlarini oshiradigan eng kuchli yagona omil bu — fidbek. Ta‘limni yaxshilash bo‘yicha eng oddiy tavsiya – bu sifatli fikr-mulohaza berishdir. Bu ko‘plab testlar yoki haddan tashqari ortiq ko‘rsatma berish degani emas. Bu o‘quvchining nimani tushunganini va nimani tushunmaganini, shuningdek, yaxshilanish uchun qanday yo‘l tutish kerakligini ko‘rsatadigan axborotni berishdir. Fidbek usuli va tushunchasi asosan XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr zamonaviy pedagogika hamda ta‘lim psixologiyasiga oid asarlarda keng uchraydi. Yangi Zelandiyalik pedagog-olim, ta‘lim samaradorligini o‘rganuvchi dunyodagi eng yirik tadqiqot Jon Hatti o‘z asarlarida feedbackni o‘qitish sifatini oshiruvchi eng asosiy kuch deb hisoblaydi. Pol Blek va Dilan Uilyamlar esa dars davomida feedbackdan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilar ko‘rsatkichini ikki barobargacha oshirishini isbotlagan [2, 98]. Ko‘rinadiki, fidbek tushunchasini olingan ma‘lumot keyingi ta‘lim jarayonini o‘quvchi ehtiyojiga qarab o‘zgartirish va moslashtirish uchun yo‘naltiruvchi vositadir. Undan o‘quvchilarning xatolarini tuzatishda va rag‘batlantirishda diagnostika vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish uchun, aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati [5, 8] natijasida qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslangan bo‘lib, nazariy ma’lumotlarni tahlillar va pedagogik tajriba asosida amalga oshirish ta’lim samaradorligi darajasini oshiradi. Dolzarb taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etish har bir pedagog oldida turgan asosiy vazifadir.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5712-son. 29.04.2019.
2. Paul Black va Dilan Uilyam Dylan Wiliam. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. 1998.
3. Adilova S. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish: ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2004. – 135 b.
4. Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: ped. fan. dok-ri diss. – Toshkent: TDPU, 2006. – 262 b.
5. Omonov H.T. va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: “Iqtisod-moliya”, 2009, 8-b.
6. Uzoqova S. Ta’limning uzviyligi va modellashtirish // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2007. – №1. – 3–5-b.